

QISHLOQ XO‘JALIGINI IXTISOSLASHISHINING INTENSIV RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI

Saburov Jumanazar Saliyevich

Toshkent Gumanitar fanlar universiteti tadqiqotchisi

Аннотация

Maqolada respublikamiz va uning hududlari agrar sektorida meva-sabzavotchilik mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati va rivojlanish muammolari ko‘rilgan, zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish sharoitida qishloq xo‘jaligini yuksaltirish bo‘yicha asosiy chora-tadbirlar taklif qilingan. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda yangilangan agrar o‘zgarishlar va davlatning agrar siyosati hududiy jihatlarini ishlab chiqishda davlatning rolini oshirish zarurligi ta’kidlangan

Kalit so‘zlar: ichki iste‘mol bozori, agrar sektor, sabzavotchilik, meva-sabzavotchilik, zamonaviy texnologiyalar, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat do‘konlari, oziq-ovqat xavfsizligi, agrar o‘zgarishlar.

Аннотация

В статье рассматриваются текущее состояние и проблемы развития производства плодово-овощной продукции в аграрном секторе нашей республики и её регионов. Предложены основные меры по развитию сельского хозяйства в условиях внедрения современных технологий. Отмечена необходимость усиления роли государства в разработке территориальных аспектов аграрной политики и обновлённых аграрных преобразований для обеспечения продовольственной безопасности.

Ключевые слова: внутренний потребительский рынок, аграрный сектор, овощеводство, плодовоовощная продукция, современные технологии, сельское хозяйство, продуктовые магазины, продовольственная безопасность, аграрные преобразования.

Abstract

The article examines the current state and development issues of fruit and vegetable production in the agrarian sector of our republic and its regions. Key measures for enhancing agriculture in the context of modern technological advancements are proposed. The necessity of strengthening the role of the state in developing territorial aspects of agrarian policy and implementing renewed agrarian reforms to ensure food security is emphasized.

Keywords: domestic consumer market, agrarian sector, vegetable growing, fruit and vegetable production, modern technologies, agriculture, food stores, food security, agrarian reforms.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi korxonasining ijtimoiy mehnat taqsimoti shakli sifatida ixtisoslashuvi mahsulotning ayrim turlarini imtiyozli ishlab chiqarishda, ba‘zan esa tayyor mahsulot ishlab chiqarishning alohida bosqichini amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish obyektiv, dinamik jarayon bo‘lib, eng avvalo, sanoat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi bilan belgilanadi. Qishloq

xo‘jaligining ixtisoslashuvi katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, birinchidan, moddiy va moliyaviy resurslarni raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga jamlanishiga yordam beradi; ikkinchidan, fan-texnika taraqqiyoti, qishloq xo‘jaligi rivojlanishini sanoat yo‘liga o‘tkazish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi; uchinchidan, mehnatni tashkil etish shakllarini takomillashtirish imkoniyatlarini yaratadi; to‘rtinchidan, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlarning qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning muammolarini o‘rganishning uslubiy va nazariy shartlari iqtisodiy fanning ham klassik, ham neoklassik sohalarini olimlarining ishlarida belgilab qo‘yilgan. Jamiyat evolyutsiyasi muammosi, uning rivojlanish bosqichlarini davrlashtirish E. Toffler, D. Bell, V.A. Inozemseva, J. Buchanan) tadqiqotlari ushbu sohasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi tarmog‘i va uning sohalarini rivojlantirishga va samaradorligini oshirish masalalari V.V.Kim, Ch.Murodov, R.V.Abdullayev, A.A.Abdug‘aniyev, A.Abduraximov, X.Abulqosimov, B.B.Berkinov, I.Ivatov, F.X. Nazarova, R.X.Xusanov, R.Xakimov, E.J.Yusupov, M.Qodirov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan va rivojlantirilgan. Yuqorida keltirilgan fikrlar mavzuning bir tomondan, hamon o‘z yechimini topmagan muammolari mavjudligi, ikkinchi tomondan, uning obyektiv zarurligi va dolzarbligi ushbu mavzuda ilmiy tadqiqot olib borishga asos bo‘ladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash, dinamika qatorlari, iqtisodiy indekslar, statistik jadval va grafiklar kabi usullardan keng foydalanildi.

Tadqiqotning obyekti sifatida respublikamizda meva-sabzavotchilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lib, mamlakatimiz va uning hududlarida meva-sabzavotchilik mahsulotlarini yetishtirish, uni iqtisodiyotga ta‘sirini baholash hamda kelajakdagi yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda respublikada yetishtirilayotgan 80 turdan ortiq qishloq xo‘jaligi mahsulotlari dunyoning 66 ta mamlakatiga eksport qilinmoqda. Shu bilan birga, sohada, ayniqsa, meva-sabzavotchilik va uzumchilikni rivojlantirishda samarali bozor mexanizmlari tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi, ilmiy yondashuvning yetarli emasligi tarmoqning mavjud imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, 1 gektar maydonda yetishtirilgan paxta xom ashyosiga nisbatan, uzumdan 7 baravar, gilosdan 6 baravar, yong‘oqdan 5 baravar ko‘p daromad olish imkoniyati mavjud¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabr PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida meva-sabzavot va uzumchilik sohasida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish qayta ishlash, saqlash, xizmat ko‘rsatish va eksport hajmini oshirish zarurligi vazifalari belgilangan.

Shunga ko‘ra 2022-yil 1-yanvardan boshlab Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tijorat banklari orqali fermer, dehqon xo‘jaliklari va boshqa mahsulot yetishtiruvchilarga – meva, uzum, sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, ko‘katlar va dorivor o‘simliklar, dukkakli va moyli ekinlarni yetishtirish uchun hosil qiymatining 50 foizigacha yillik 14 foiz stavkada 6 oylik imtiyozli davr bilan 12 oy muddatga kreditlar ajratila boshlandi².

Umuman olganda, mamlakat iqtisodiyotining agrar sektorida samaradorlikni oshirish vazifasi eng muhimi ekanini alohida ta‘kidlash lozim. Faktlar shuni ko‘rsatadiki, yalpi daromad va xo‘jalik faoliyatidan olingan daromadlar kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha 1 punktga qishloq xo‘jaligi yerlari, rentabellik darajasi (davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning barcha turlarini hisobga olgan holda), mehnat unumdorligi (1 xodimga to‘g‘ri keladigan savdo mahsuloti), butun mamlakat bo‘yicha standartlardan kechikish mos ravishda 40, 92, 55 va 45% ni tashkil qiladi.

Meva-sabzavot mahsulotlari bozori tarixan ancha oldin, ishlab chiqaruvchilar o‘zlari yetishtirgan meva, uzum va sabzavotlarning bir qismini o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun boshqa mahsulot turlariga almashtirib, ijtimoiy mehnat taqsimlana boshlagan paytdan vujudga kelgan. Bu ayirboshlash bora-bora barqaror bozor xarakteriga ega bo‘ldi. Meva-sabzavot mahsulotlari tovar bozorining rivojlanishi boshqa bozor turlarining rivojlanish jarayonidan mohiyatiga ko‘ra hech qanday farq qilmadi. U faqat boshqa bozorlardan tovar-pul munosabatlari qatnashchilari va uning faoliyat ko‘rsatishi uyushmaganlik xarakteri bilan ajralib turgan. Bu bozorda meva-sabzavot va uzum mahsulotlari deyarli barcha iste‘molchilari xaridor sifatida, mahsulot ishlab chiqaruvchilar va bozor munosabatlari vositachilari esa, sotuvchilar sifatida qatnashgan. O‘ziga xos bu xususiyat bozor munosabatlari tashkil qilinishida hozirgi vaqtgacha o‘z aksini topmoqda.

Xo‘jalik yuritishning bozor tamoyillari joriy qilinishi bilan meva-sabzavot mahsulotlarini davlat tashkilotlariga majburiy sotish tizimi bekor qilindi va shartnoma

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabr PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/4567334>

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabr PQ-52-son “Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-5774700>.

bo'yicha erkin xaridlar tizimi joriy etildi. Shu tariqa ishlab chiqaruvchilarning ham, iste'molchi-xaridorlarning ham o'zaro iqtisodiy manfaatdorligi ta'minlandi.

Respublikada sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilik barqaror rivojlanganligini ko'rsatadi. Bu davrda sabzavotchilik maydoni 49,8 ming gektar yoki 28,8 foiz, ko'p yillik mevazorlar maydoni 56,2 ming gektar yoki 30,4 foizga oshgan, uzumzorlar maydoni 19,5 ming gektarga ko'payib, bog'dorchilikda o'rtacha hosildorlik gektaridan 2010 yildagi 92,6 sentnerdan 2020 yilda 116,7 sentnerni tashkil etdi, natijada, yalpi hosil 2812,6 ming tonnaga yetkazilib, 1,6 barobardan ziyodga o'sishi ta'minlandi. Tadqiq etilayotgan davr mobaynida uzumchilikda yalpi hosil 1,6-martaga, hosildorlik esa qariyb 1,7 barobarga ortgan.

Tahlillarimiz ko'rsatishicha, Qoraqalpog'iston Respublikasida meva, uzum hosildorligi pastligi ko'p jihatdan Amudaryoning quyi qismi va Orolbo'yi hududi tabiiy sharoitlari bilan bog'liq bo'lib, u yerda o'rtacha yillik havo harorati past, eng asosiysi, quriyotgan dengizdan ko'tarilayotgan tuzning salbiy ta'siri katta. Hosildorlikni oshirish respublika meva-sabzavot va uzum majmuasini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi, chunki ko'pchilik viloyatlarda mahsulot yetishtirishni ishlov beriladigan agrotexnik tadbirlarni o'z muddatida qo'llash hamda yer maydonlarini kengaytirish hisobiga ko'paytirish imkoniyatlari mavjud.

1-jadval

Qoraqalpog'iston respublikasida xo'jalik yuritish shakllari bo'yicha meva-sabzavot va uzum mahsulotlari yetishtirish tuzilmasi, yakunga nisbatan foizlarda¹

Ko'rsatkichlar	2015 y.	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y
I. Sabzavotlar					
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	20,1	9,1	0,6	0,9	2,5
Fermer xo'jaliklari	4,9	13,7	35,1	34,1	35,2
Dehqon xo'jaliklari	75,0	77,2	64,3	65,0	62,3
Jami	100	100	100	100	100
II. Meva va rezavorlar					
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	36,8	21,8	1,1	2,2	3,4
Fermer xo'jaliklari	4,3	18,5	47,7	45,8	40,5
Dehqon xo'jaliklari	58,9	59,7	51,2	52,0	56,1
Jami	100	100	100	100	100
III. Uzum					
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	62,3	39,4	0,8	1,6	2,5
Fermer xo'jaliklari	4,7	13,9	56,4	53,4	41,2
Dehqon xo'jaliklari	33,0	46,7	42,8	45,0	56,3
Jami	100	100	100	100	100

Shunday qilib, meva-sabzavot va uzum majmuasi faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy sharoitlari uzoq vaqt davomida xo'jalik yuritish umumiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimida bozor tamoyillariga asoslangan islohotlar asosida shakllandi. Meva-sabzavot

¹ Muallif ishlanmasi

va uzum mahsulotlari ishlab chiqarishda ham xo‘jalik yuritish shakllarida o‘zgarishlar ro‘y berdi(1-jadval).

2023 yilda meva-sabzavot va uzum mahsulotlari yetishtirish tuzilmasi o‘zgarib, agrar sohada xo‘jalik yuritishning yangi shakli bo‘lgan fermer xo‘jaliklarida uzum yetishtirishning ulushi 41,2 foizga yetdi.

Dehqon xo‘jaliklarining meva-sabzavot va uzum mahsulotlari yetishtirishdagi ulushi barqaror bo‘lib kelmoqda. Bu tushunarli albatta, chunki ular faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy sharoitlari qishloq xo‘jaligida asosiy mahsulot yetishtiruvchilar sifatida tan olingan xo‘jalik yuritishning fermerlik shaklidan unchalik farq qilmaydi. Masalan, 2023 yil qishloq xo‘jalik mahsulotlari yalpi ishlab chiqarishida fermer xo‘jaliklarining ulushi 29,2 foizni, dehqon xo‘jaliklarining ulushi esa 65,9 foizni tashkil etdi. Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ulushi atigi 4,9 foizga teng bo‘lgan. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlaridan biri qishloq xo‘jalik ekinlarining bir gektar yer maydoni hisobiga hosildorligidir.

Respublikada xo‘jalik yuritish shakllariga qarab meva, uzum va sabzavot ekinlari hosildorligi haqidagi ma’lumotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, birinchidan, meva, uzum va sabzavotlar hosildorligi umuman 1 gektar maydon hisobiga o‘sdi; ikkinchidan, xo‘jalik yuritish shakliga qarab bu ekinlar hosildorligi ko‘rsatkichlarida katta farq kuzatildi. Ko‘rsatilgan ekin turlari bo‘yicha eng kam hosil shirkat turidagi qishloq xo‘jalik tashkilotlarida olingan, eng yuqori hosildorlik esa yakka tartibdagi dehqon xo‘jaliklarida kuzatildi.

Qishloq xo‘jaligi tashkilotlari va xo‘jalik yuritishning boshqa shakllari, birinchi navbatda, yakka tartibdagi dehqon xo‘jaliklari o‘rtasida meva va rezavorlar hosildorligi bo‘yicha ayniqsa katta farq meva ko‘chatlariga yetarli darajada sifatli qaramaslik hamda mahsulotning tegishli tarzda hisobga olinmasligi va nazorat qilinmasligi bilan bog‘liq. Shu sababli qishloq xo‘jaligi tashkilotlari va yakka tartibdagi dehqon xo‘jaliklari o‘rtasida mevazorlar hosildorligi bo‘yicha farq, masalan, 2020-yilda 4,2 baravarga, fermer xo‘jaliklaridagidan farq esa 1,9 baravarga yetdi. Meva-sabzavot va uzum mahsulotlarining uchala turi bo‘yicha hosildorlik ko‘rsatkichlari dehqon xo‘jaliklarida yuqori. Bu ustunlik asosan, fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarida sabzavotlar, meva va uzum ko‘chatlari sifatliroq parvarishlanishi bilan bog‘liq.

Dehqon xo‘jaligi a‘zolarining meva-sabzavot va uzum mahsulotlariga shaxsiy ehtiyojlarini qondirish nuqtai nazaridan shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar qishloq joylarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ushbu bosqichida asosiy talablarga javob beradi va hali uzoq vaqt mehnatni qo‘llash sohasi sifatida faoliyat ko‘rsata oladi. Shu bilan birga sanoat va iqtisodiyotning boshqa noqishloq xo‘jalik turlari rivojlanmoqda, qishloq xo‘jalik tovar mahsulotlari iste’molchilari, shahar aholisining soni o‘smoqda. Meva-sabzavot va uzum mahsulotlariga ehtiyojni qondirish bo‘yicha ko‘lami tobora ortib borayotgan vazifani bu mahsulotlarni fermer xo‘jaliklarida yetishtirish, bu jarayonda ilg‘or texnologiyalarni, mehnatni tashkil qilishning ratsional shakllarini qo‘llashga imkon beradigan ixtisoslashtirish asosida hal etish mumkin.

Meva-sabzavotchilik sohasi faoliyatini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarga zaruriy yangi texnika va texnologiyalar olishga moliyaviy yordam (lizing, imtiyozli kredit) berishni kengaytirish, xorijiy kredit liniyalari asosida agrofimlar tomonidan mahsulotlarni zamonaviy saqlash joylarini barpo etish, tijorat banklaridan imtiyozli kredit liniyalarini mazkur soha vakillariga alohida ajratishni yo‘lga qo‘yishni ta‘minlash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilgan uzumning aksariyat qismida oila a‘zolari mehnatiga asoslanib, faqatgina og‘ir mehnat kuchini talab etadigan toklarni ochish, oraliq yumshatish, ariqlarni ochish, toklarni ko‘mish kabi tadbirlarga qo‘shimcha yollanma mehnat kuchiga zaruriyatni sezadilar. Shu bilan birgalikda qayd etilgan tabdirlar uchun sarf etiladigan moliyaviy mablag‘lar jami xarajatlarning 55 foizini tashkil etib, keyingi yirik miqdordagi xarajat hashorat va zararkunandalarga qarshi kurashish maqsadida xarid qilinadigan kimyoviy vositalar uchun sarflar hisoblanadi. Monografik tadqiqotlar ko‘rsatishicha organik o‘g‘itlarni yuklash, ularni sepish, sug‘orish, uzumni yig‘ish, tashish kabi mehnatlar uchun oila a‘zolari jalb etiladi.

Ilmiy yondashilganda bajariladigan ish hajmidan kelib chiqqan holda sarf etilgan har bir kishi/kun uchun ish haqi me‘yorlar mavjud bo‘lib, ularning miqdori va summasining ilmiy asoslari ishlab chiqilgan. Ammo, “tomorqa daromad manbai” ekanligining ham eng asosiy jihati shundaki, mazkur xo‘jaliklarda xarajatlar tarkibida mehnat xarajatlarining hisobga olinmasligi bois xar qanday bozor konyukturasiga moslashuvchan raqobatbardosh xo‘jaliklarga aylantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi ma‘lumotlardan kelib chiqqan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklar faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagilarni taklif etamiz:

- Meva-sabzavotchilik ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining yangi texnika va texnologiyalar bilan ta‘minlanishi uchun zaruriy moliyaviy yordam berishni kengaytirish.
- Agrofimlar tomonidan mahsulotlarni saqlash joylarini yangilarini barpo etish.
- Tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar liniyalari mazkur soha vakillariga alohida ajratishni yo‘lga qo‘yish.
- Qishloq joylarida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yangi ish o‘rinlarini tashkil etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish.
- Meva-sabzavotchilik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlashga yo‘naltirilgan loyihalarni rag‘batlantirish.
- Aholining mahsulotlarga bo‘lgan iste‘moli, ularning narxlari, sotib olish hajmlari kabi ko‘rsatkichlarga doir axborotlar bazasini shakllantirish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabr PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga

mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni
<https://lex.uz/docs/4567334>

2. Xushvaqтова X.S. Bozor sharoitida meva-sabzavot kichik majmuasida agrosanoat integratsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy muammolari. Iqt.fan. nom.ilm.dar. olish uchun yozilgan dis. avtoref.– T.: –2005. –b.25.

3. Xo‘jaqulov X.D., Rashitova N.X., Asqarov N.N., Sayfullayev S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida tarkibiy o‘zgarishlarning samarali yo‘llarini statistik metodlar asosida ishlab chiqish. Monografiya. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2018. – 206 b.

4. Мухитдинова У.С. Рынок плодоовощной и виноградной продукции и эффективность его функционирования в условиях либерализации экономических отношений. Монография. –Ташкент: — Фан, 2008.

5. Сомов В.Л. Экономико-статистический анализ развития сельского хозяйства Саратовской области.// Вопросы статистики, 2019,Т.26, № 6. – С. 47-54.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**